TIKUV MAHSULOTLARI ASSORTIMENTINI KENGAYTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH CHIQINDILARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA TIKUV BUYUMLARINI ISHLAB CHIQISH

Xamdamova Gulsanam Olimjon qizi
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti asisstenti
E-mail: hamdamovagulsanam2910@gmail.com
Madumarova Irodaxon Mo‘min qizi
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
E-mail: madumarovairoda28@gmail.com
Rasulova Soliha Mirvosil qizi
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, talaba
E-mail: Soliharasulova34@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy va psixik rivojlanish xususiyatlari, bolalar kiyimiga qo‘yiladigan talablarni o‘ziga xosligini tahlili keltirilgan. Shuningdek organizmdagi funksiyalar, tana tuzilishi va proporsiyalari o‘zgarishi bolalar uchun kiyim loyihalashda hisobga olinganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bolalar kiyimi, so‘rovnoma, to‘qimachilik chiqindilari, xom ashyo, ekologik omil, mato.

Аннотация. В статье приведен анализ особенностей развития детей младшего школьного возраста, особенностей требования к детской одежде. Также изменения в функциях организма, телосложении и пропорциях для проектирования одежды для детей младшего школьного возраста.

Ключевые слова. Детские одежды, опросник, текстильные отходы, сырье, экологический фактор, ткань.

Abstract. The article analyzes the features of the development of children of primary school age, the features of the requirements for children's clothing. Also changes in bodily functions, physique and proportions of body children for the design of clothing for children of primary school age.

Key words: children's clothing, questionnaire, textile waste, raw material, environmental factor, fabric.

Kirish.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-adbirlar amalga oshirilmoqda [1].

Hozirgi kunda barcha yengil sanoat korxonalarida to‘qimachilik chiqindilari paydo bo‘lmoqda. Bunday chiqindilar juda ko‘p miqdorda hosil bo‘lib, tayyorlov va qayta ishlash tashkilotlari tomonidan qabul qilinmaydi, balki utilizasiyaga olib

ISSN 3030-3907

chiqiladi, bu esa mamlakatning ekologik holatini yomonlashtiradi. Ekologik omil haqida unutmagan holda, to‘qimachilik chiqindilaridan foydalanish, tolali xom ashyo ishlab chiqarish va chiqindilarni yo‘q qilish bilan bog‘liq atrof-muhitga salbiy ta’sirni sezilarli darajada kamaytiradi.

Tikuvchilik va trikotaj sanoatida xomashyo va moddiy resurslardan oqilona foydalanish asosiy muammolardan biri bo‘lib, ularni hal etishda kam chiqindili texnologiyalarni yaratish dolzarb vazifadir [2].

Asosiy qism. Hozirgi kunda barcha yengil sanoat korxonalarida to‘qimachilik chiqindilari paydo bo‘lmoqda. Bunday chiqindilar juda ko‘p miqdorda hosil bo‘lib, tayyorlov va qayta ishlash tashkilotlari tomonidan qabul qilinmaydi, balki utilizatsiyaga olib chiqiladi, bu esa mamlakatning ekologik holatini yomonlashtiradi. Shu sababli, to‘qimachilik chiqindilaridan foydalangan holda texnologik jarayonlarni ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan muhim ilmiy-texnik muammo paydo bo‘ladi deb hisoblanadi. 1-rasmla maxalliy chiqitlardan tikuv buyumlari kolleksiyasi keltirilgan.



1-rasm. Maxalliy chiqitlardan tikuv buyumlari kolleksiyasi


To‘qimachilik ishlab chiqarish chiqindilari deganda nafaqat ishlab chiqarilgan ip, gazlama va ipning qoldiqlari, balki maishiy va sanoat chiqindilari ham tushuniladi. Bularga eskirgan mahsulotlar, shuningdek, dasturxon, pardalar, choyshablar, pardalar, kombinezonlar, choyshablar va boshqalar kiradi. Sanoat ishlab chiqarish uzaro bogliq bolgan mehnat jarayonlari va tabiiy jarayonlar yigindisidan iborat. Bu jarayonlar yordamida korxonaga keltirilgan.

ISSN 3030-3907

Xomashyoga ishlov berishda ularni tashishga, kochirishga, nazorat qilishga, ishlab chiqarish uchun zarur bolgan jihozlar va turli xil energiya bilan ta‘minlash uchun juda kop mehnat sarf qilinadi. Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayoni texnologik, transport, energetik va shu kabi bir qancha jarayonlardan iborat boladi. Lekin ishlab chiqarish asosini texnologik jarayonlar tashkil etadi. Texnologik jarayonlar yordamida xomashyo ishlab chiqarish mahsulotiga aylantiriladi. Tadqiqot ishlari bo‘yicha anketa so‘rovnomasi ishlab chiqildi.

So‘rovnomada maktabgacha ta’lim muassasalariga farzandlari qatnaydigan ota-onalardan so‘rovvnomalar olindi. So‘rovnomada 350 ta respondentlar ishtirok etdi. Anketada o`rta yoshdagi va undan katta bo`lgan ayollarning bolalar borasida savol-javoblar olib borilayotganda:


farzandingiz faolligi, farzandingiz qanday rangdagi kiyimlarni yoqtiradi, farzandingiz kiyim matosini tolaviy tarkibi qanday bo‘lishini istaysiz, kiyim komplekti qanday buyumlardan iborat bo‘lishini istaysiz, O‘zbekiston bozorlarida sotilayotgan bolalar kiyim assortimenti sizni qoniqtiradimi, kiyim matosi qanday bo‘lishini istaysiz, kiyimni foydalanish dovri siz uchun muhummi, ustki kiyimda isituvchi qatlam bo‘lishini istaysizmi, ustki kiyimni taqilmasi qanday bo‘lishini istaysiz, farzandingiz qanday cho‘ntakli kiyimni yoqtirdi, farzandingiz kiyim komplektini kiyish muddati, farzandingiz kiyim komplektini kiyish muddatini qisqaligi sababi, narx qanchalar ro‘l o‘ynaydi bo‘yicha ota-onalar fikirlari aniqlandi. Bolalarga kundalik kiyimlar uchun yengil kurtkalar maqsadga muvofiq ekanligi ajratib olindi. Bunday yengil kurtkalar xar qanday mavsumda kerak bo‘ladi, chunki bahor-kuz mavsumida ertalablari salqin, kunduzi kuni issiq kechqurunlari salqin bo‘lganligi uchun bog`chaga borayotgan bolalalar gardirobiga shunday kurtkalarga ehtiyoj borligi aniqlandi. Bolalar kurtkasi uchun zamonaviy moda tendentsiyasi tahlili va so‘rovnomalar asosida tavsiya etiladigan ranglar gammasi o‘rganildi. 2-rasmda tavsiya etiladigan ranglar gammasi keltirilgan.



2-rasm. Bolalar kiyimi modeli uchun tavsiya etiladigan ranglar gammasi

ISSN 3030-3907

Kurtkaning paxta matosidan bo`lishi bolalarning tanasiga havo o`tishini taminlashi ko`p onalarni maqsadi hisoblanar ekan. Onalar bilan suhbatda yana shuni aniqladikki bolalarga yoqadan ko`ra kapyushonli kurtkalar ko`proq muhimligini bildik. Bolalarning gardirobida haki rang har bir kiyimga mos tushishi ko`plab onalar tasdiqlab berishdi, shu sabab haki rangni talab olindi. Tanlangan materiallar va ranglar asosida yangi model namunalari ishlab chiqildi. 3 va 4-rasmlarda ishlab chiqilgan model namunasi keltirilgan.



3-rasm. So‘rovnomalar aosida buyum namunasining texnik rasmi ishlab chiqildi.



4-rasm. So‘rovnomalar aosida ishlab chiqilgan buyum namunasi.

Xulosa. Bolalar kiyimlari uchun rang dizaynini tanlash uyg‘un rang kombinatsiyalari nazariyasiga asoslanishi kerak. Shuning uchun bolalar kiyimlarini badiiy oyihalash bosqichida kelajakdagi mahsulotning o‘lchami va shakliga, kostyumdagi ranglarning uyg‘un kombinatsiyasiga, detallarning nisbati va mutanosibligiga alohida e’tibor berilishi kerak.

Umuman olganda, bolalar kiyimlari kattalar kiyimi kabi modaning kuchli ta’siriga tobe emas. Ta’kidlanishicha, [2] bolalar kiyimidagi moda bilvosita

ISSN 3030-3907

namoyon o‘ladi va kattalar kiyimiga qaraganda kamroq tez-tez o‘zgaradi, bolalar kiyimlari odadan faqat bolaning hayoti uchun qulaylik yaratadigan narsalarni tanlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy modellashtirishning yetakchi tendentsiyalari, qoida tariqasida [3], bolalar kiyimlarida ham o‘z aksini topadi. Kiyimda qo‘llaniladigan individual ranglar yoki ularning kombinatsiyalarining bolaning hissiy holatiga ta’siri masalalari yetarlicha o‘rganilmagan va o‘z yechimini talab qiladi. Shunday qilib, bolalar kiyimlari uchun uyg‘un rangli yechimlarni topishga qaratilgan tadqiqotlar o‘z vaqtida va istiqbolli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Гончарова С.А. Развитие приемов морфологической трансформ при проектировании одежды для детей. Диссертация на соискание ученой степени канд.техн.наук. /Шахты, 2001. С. 21-30

2. Юсупова Ж.А., Суслова Н.В., Чижова Н.В., Коблякова Е.Б. Рациональная структура промышленной коллекции детской одежды. Сообщение 1. Усовершенствованная методика проведения предпроектных работ// Швейная промышленность. -2000.- № 2. -С. 36 – 38

3. Бескоровайная Г.П., Куренова С.В. Проектирование детской одежды: Учеб, пособие для студ. высш. учеб, заведений/ Под общей ред. Бескоровайной Г.П. - М.: Мастерство, 2000. - 96 с.

ISSN 3030-3907